

Buzoqqa sig'inish



19:00 / 10.12.2022 1384

Bani Isroil Misrda ancha vaqt mushriklar bilan birga yashagan edi. Qibtiylar Misrda juda ko'p narsaga sig'inishlarini Bani Isroil o'z ko'zlari bilan ko'rardilar. Shu bois Isroil farzandlari asta-sekin shirkdan nafratlanmay qo'ydilar. Xuddi eski uy devorlaridan suv sizib kirganidek ular qalbiga ham shirk muhabbati uy qura boshladi. Ozgina fursat topilishi bilanoq misli pastlikka yugurayotgan suvdek shirkka qarab chopishardi. Qalblar buzilgan, xohish-istaklar noto'g'ri yo'nalishga burilgan edi. Haq yo'lni ko'ra-bila turib tashlab ketardilar. Zalolatga mudom quchoq ochardilar. Bani Isroil Fir'avn ta'qibidan qochib Qizil dengizdan o'tib ketdi.

«So'ng ular butlarga sig'inib turgan bir qavm oldidan o'tdilar va: «Ey Muso, bizlarga ham ularning ilohlari kabi xudo qilib (yasab) ber», dedilar».

Ularning bu noo'rin tilaklaridan Musoning jahli chiqdi.

- «Albatta sizlar bilmaydigan ??????????????!».

Vo ajab! Bu ne zulm?! Axir Alloh hali dunyoda hech kimga bermagan ne'matlarini sizlarga bermadi-mi?

Axir Alloh taolo ularni butun olamlardan afzal qilib qo'ymadimi?!

Muso dedi:

- «Men, sizlarni butun olamlardan afzal qilib qoʻygan Allohdan oʻzgani (yaʼni jonsiz butni) sizlarga xudo qilib beramanmi?».

Muso Parvardigori bilan soʻzlashmoq uchun Tur togʻiga qarab ketdi. Bani Isroil Muso ketganidan soʻng shaytonning ovi va shirkning oʻljasiga aylandi.

Ularning orasida Somiriy degan bir badbaxt kimsa ham yashardi.

«Soʻng (Somiriy oʻsha zeb-ziynatlarni olovda eritib, xuddi tirik buzoq kabi) ovozi bor haykal-buzoq (yasab) chiqarib berdi. Soʻng (Somiriy va uning sheriklari): «Sizlarning ham, Musoning ham ilohi shu edi, (Muso) unutib, (uni boshqa yerdan izlagani ketibdi)», dedilar».

Bani Isroil qavmi mana shu buzoq bilan fitnalandi.

Ular koʻr va karlarcha buzoqqa sigʻina boshladilar. «Axir uning oʻzlariga biron soʻz qaytara olmayotganini va biron ziyon ham, foyda ham yetkazishga qodir emasligini koʻrmaydilar!»

Axir ular oʻsha (buzoq) oʻzlariga soʻzlay olmasligini va hidoyat ham qila olmasligini bilmadilar!»

Holbuki (buzoqqa sigʻinishlaridan) ilgari Horun ularni qattiq maʼn qilib:

- «Ey qavmim, sizlar bu bilan faqat imtihon qilindinglar xolos, (bas, u buzoqqa sigʻinmanglar!) Shak-shubha yoʻqki, sizlarning. Parvardigoringiz yolgʻiz Rahmon marhamatli Allohdir. Bas, menga ergashinglar va amringa itoat qilinglar!»- degandi».

Lekin Somiriyning sehri bilan aldanib, qalbi buzoq muhabbatiga yoʻgʻrilgan Bani Isroil bu zalolatidan qaytmadi.

«Ular: «To bizlarga Muso qaytmagunicha, unga (shu butga) ibodat qilib–sigʻinishdan hargiz ajralmaymiz», degan edilar».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad